

## O‘ZBEKISTON MADRASALARI TARIXIDAN (Baroqxon madrasasi misolida)

**Shahzod MASHRAPOV**

*NamDU, 70220301 – tarix (yo ‘nalishlar va faoliyat turi bo ‘yicha) magistratura mutaxassisligi talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada O‘rta Osiyoning eng yirik va qadimiy madrasalaridan biri, Toshkentning XVI asrga oid eng go‘zal arxitektura yodgorlikligi – Baroqxon madrasasi tarixi, me‘moriy uslubi va faoliyati yoritilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *XVI asr, Toshkent, Baroqxon, shayboniylar, Navro‘z Ahmadxon, hokim, madrasa, maqbara, Buxoro va Samarqand ustalari, gumbaz, naqshlar, ta‘lim.*

Sharqning qadimiy shaharlari – Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent insoniyat tarixiy sivilizatsiyasi markazlaridan hisoblanadi. Bu hududlarda jamiyat taraqqiyotiga asos bo‘luvchi ilm o‘choqlari rivojlangan. Madaniyat maskanlaridan biri bo‘lgan Toshkentda ham ilm-fan hamma zamonlarda qadrlanib, yuksaklarga ko‘tarilgan. XV – XX asrlarda Toshkentda ko‘plab madaniyat va fanning yetuk mutafakkirlari yashab ijod etishgan. Bunday mutafakkirlarning yetishib chiqishida madrasalarning o‘rni beqiyos bo‘lgan<sup>1</sup>.

O‘rta asrlarda bunyod etilgan, XX asr boshlariga qadar O‘rta Osiyoning eng mashhur madrasalari qatorida turgan Baroqxon madrasasi Toshkentning XVI asrga oid eng go‘zal arxitektura yodgorliklaridan biridir. Rivoyatlarga qaraganda, Baroqxon madrasaning qurilishi shayboniylardan bo‘lgan, Baroqxon nomi bilan tanilgan Navro‘z Ahmadxon bilan bog‘lanadi. Navro‘z Ahmadxon Abulxayrxonning nevarasi, Toshkent hokimi Suyunchixo‘jaxonning kichik o‘g‘li bo‘lgan. Navro‘z Ahmadxon otasining vafotidan keyin Toshkent hokimi (1525 – 1551-yillar), so‘ngra Movarounnahr (1551 – 1556-yillar) xoni bo‘lgan<sup>2</sup>. Navro‘z Ahmadxon yoshligida Vosifiydan she‘riyat, musiqa, ashula, vazn va nazmdan ta‘lim olgan. Ayni vaqtda chavandozlik va harbiy mashqlar bilan ko‘proq mashg‘ul bo‘lgan. Baroqxon o‘z saltanatini kengaytirish uchun ko‘p harbiy yurishlar uyushtirgan.

Abdullatifxon vafotidan keyin 1551-yili Samarqand taxtiga o‘tirgan va Navro‘z Ahmadxon nomi bilan Movarounnahrni boshqargan. Uning nomi bilan tanga pullar zarb etilgan. Navro‘z Ahmadxon obodonchilik ishlariga e‘tibor bergan, madrasalar qurdirgan (jumladan, Baroqxon madrasasi). Hofiz Tanish Buxoriyning “Abdullanoma” asarida qayd etilishicha, Navro‘z Ahmadxon 1556-yilda Zarafshon daryosidan boshlangan Darg‘om kanalining bosh inshooti — Ravotxo‘ja to‘g‘onini tuzattirish uchun kelgan va shu yerda to‘satdan vafot etgan. Navro‘z

<sup>1</sup> Xushvaqtov N.H. O‘rta Osiyo madrasalari ta‘lim tizimi tarixidan // Ilmiy axborotnoma – Samarqand: 2016-yil 4-son, – B. 41.

<sup>2</sup> Ўринбоев А., Бўриев Ў. Тошкент Муҳаммад Солих тавсифида. – Т.: Фан, 1983. – Б. 31.

Ahmadxon davrida Movarounnahr bilan Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari, Hindiston, Xitoy, Sibir o'rtasida savdo-sotiq, elchilik munosabatlari rivojlangan<sup>3</sup>.

Navro'z Ahmadxon tomonidan barpo etilgan Baroqxon madrasasi juda ustalik bilan rejalashtirib qurilganki, bu madrasa o'zidan ilgari tushgan shu yerdagi ikki maqbarasani o'z ichiga olgan holda barpo etilgan va keyinchalik bu maqbaralar madrasaning ajralmas qismi bo'lib qolgan. Bu maqbaralar aholi orasida katta va kichik maqbaralar deb nom olgan. Ulardan biri bo'lgan kichik maqbaraning kimga mansub ekanligi ma'lum emas, keyinchalik bu maqbara xalq orasida "Nomsiz" nomi bilan atala boshlangan. Bu maqbarada Navro'z Ahmadxonning qabri joylashgan. Maqbaraning to'rt tomonidagi eshiklaridan uchta keyinroq berkitib tashlangan (qolgan eshikdan zina bilan tomga chiqilgan).

Ikkinchi maqbaraga – Toshkentdagi shayboniylar sulolasining asoschisi Suyunchxo'jaxon (u 1525-yilda vafot etgan) maqbarasidir<sup>4</sup>. Aholi orasida "katta" nomini olgan ushbu maqbarada Toshkent hokimi Suyunchxo'jaxonning qabri joylashgan. Keyinchalik 1904-yilga kelib maqbara masjidga aylantirilgan.

Maqbara rejasi markazga asoslantirilgani yaqqol ko'rinib turadi. Ichki devorlaridagi tahmonlar hisobiga ancha kengaytirilgan. Hovli atrofida hujralar va ichki tarafida peshtoq bo'lib, madrasaning g'arbiy qismi bir muncha oldinga chiqqan. Poydevori toshdan, qalin devorlari turli hajmdagi pishiq g'ishtdan ishlangan, ba'zi joylari sinchli bo'lgan. Madrasaning sharq tomonidagi ulkan peshtoqqa rang-barang sirkor g'ishtchalardan namoyon terilgan. U handasiy va girih naqshlar bilan hoshiyalangan. Peshtoqning yuqori qismi saqlanmagan. Asosiy peshtoqning orqa tomonida yana peshtoq va besh qirrali ravoq bor<sup>5</sup>.

Maqbaraning gumbazi sirlangan koshin bilan qoplanganligiga ko'ra maqbara aholi orasida "ko'kgumbaz" deb ham yuritilgan<sup>6</sup>. G'arb tomondagi ichki peshtoq ko'k gumbazning tarkibiy qismi bo'lgan. Baroqxon madrasasining to'rt burchagida cho'ziqxonalar (qorixonalar) bo'lgan. Bino shakli va bezaklari o'z holicha qolgan. Uning 22 metrli gumbazi ko'k sirkor g'ishtchalar bilan pardoqlangan (gumbaz 1868-yilgi zilzila paytida qulab tushgan). Gumbaz ostidagi 4,5 metrli poygumbazga turli rangdagi sirkor g'ishtchalardan handasiy va girih naqshlar terib yaratilgan, Qur'on suralari bitilgan. Maqbara ichki qismidagi bezaklar keyinchalik ko'chib tushgan. Ichki devorning tepa qismida ganchdan ishlangan naqshlar bo'lib, ularga oltinsuvi yugurtirilgan, pastki qismida olti burchakli sopollardan terilgan keng izora bor (ular yashil sirkor, zarhalli g'ishtchalar bilan ajratilgan). XX asr boshlaridagi ta'mir vaqtida qadimiy bezaklarning qoldig'i ko'chirib tashlanib, oq ganch bilan suvalgan.

Baroqxon madrasasi naqshlarining go'zalligi, qurilish uslubi bilan zamonasining boshqa madrasalari bilan bellasha olgan. Madrasa Buxoro va Samarqand ustalari tomonidan qurib bitkaziladi.

Maqbaraga toqi-ravoqli peshtoq orqali kiriladi. Maqbara ichki bezaklarining muhtashamligi XV asrdagi Samarqand me'morchiligining eng go'zal na'munalari – Oqsaroy, Ishratxona, Childuxtaron maqbaralaridan qolishmas edi. Devorlari, toqilari bag'allariga rang-barang ornamel

<sup>3</sup> Baroqxon madrasasi / <http://dkm.gov.uz/ru/baroqxon-madrasasi>

<sup>4</sup> Baroqxon madrasasi / <https://legacy.uz/uz/barohon-madrasasi/>

<sup>5</sup> Baroqxon madrasasi / [https://uz.wikipedia.org/wiki/Baroqxon\\_madrasasi](https://uz.wikipedia.org/wiki/Baroqxon_madrasasi)

<sup>6</sup> Булатова В. Бароқхон мадрасаси. – Т.: Ўзбекистон, 1972. – Б. 3.

kundal (naqsh san'ati usullaridan biri) usulida berilgan va ustidan zarhal yugurtirilgan. Devorning to'q yashil rangli olti yoqli sirli parchin plitalar terib ishlangan izorasiga zarhal yugurtirib nafis bezak berilgan<sup>7</sup>.

Suyunchxo'jaxon maqbarasi madrasaning kompozitsion (ma'lum bir joyning mazmunan, karakter va maqsadi jihatidan bog'langan qismlarining joylashishi) markazida bo'lib, asosiy peshtoqning ro'parasida joylashgan. Ikkinchi maqbara madrasa asosiy fasadining janubi-sharqiy burchagida joylashgan. U hajmi va bezagining soddaligi bilan uncha ko'zga tashlanmaydi, uning old tomoniga sayqal berilgan hamda g'isht terib ishlangan. Maqbaraning arxitektura va konstruksiya jihatlaridan bir xilligi uning Suyunchxo'jaxon maqbarasi bilan bir davrda qurilganidan dalolat beradi<sup>8</sup>.

Madrasaning asosiy fasadi ko'chaga qaragan. Uning kelishgan peshtoqi va ravoqlari sirlangan parchinlar terib bezatilgan. Peshtoqning burchaklarini ikkita guldasta birlashtirgan. Hovlining shimoliy va janubiy tomonlariga bir qavatli xujralar qurilgan.

Baroqxon madrasasi 1859-yilda Toshkent hokimi Qanoatshox davrida ko'p marta qilingan remontlar vaqtida ancha o'zgarib ketdi. Uning dastlabki ko'rinishi buzilgan. XVIII – XIX asrlar mobaynida Baroqxon madrasasining qimmatli o'vymakor, sadaf qadalgan eshiklari, maqbara ichidagi agal'matolib ustunlari, o'ymakor bezaklari va hako'zolar yo'qolib ketgan. 1868-yilgacha olingan sur'atlari, koshin va bezaklarining 1935 – 1956-yillarda ta'mir qilish ishlari o'tkazilayotgan vaqtda ochilgan va tuproq orasidan topilgan qoldiqlarigina madrasa fasadlari va interyerlarining qadimgi ko'rinishini to'laroq tasavvur etish imkonini beradi<sup>9</sup>. 1904-yilgi ta'mirlashdan keyin madrasada ta'mirlash ishlari deyarli amalga oshirilmagan. Faqatgina XX asrning 50–60-yillarida xalq ustasi Shirin Murodov rahbarligida bosh peshtoq, miyonxonadagi hujralar qayta tiklangan, hujralardagi ravoqlar va tokchalarning g'ishtlari qaytadan terib chiqilgan. Ana shu ta'mirlash ishlaridan keyin Baroqxon madrasasida O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy idorasi faoliyat yuritgan. Sobiq tuzum davrida "Nomsiz" deb yuritiluvchi maqbara diniy idora rahbari – muftiy ishxonasiga aylantirilgan, Suyunchxo'jaxon maqbara-xonaqohi esa majlislar va anjumanlar zali bo'lgan.

Mustaqillik yillarida yurtimizdagi boshqa me'moriy yodgorliklar qatori Baroqxon madrasasiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Baroqxon madrasasi 1997 va 2007-yillarda yana qayta ta'mirlanadi<sup>10</sup>. Hozirga qadar madrasa binosi o'zining oldingidek go'zal qiyofada uchun ta'mirlash ishlari davom etmoqda.

#### Adabiyotlar:

1. Булатова В. Бароқхон мадрасаси. – Т.: Ўзбекистон, 1972.
2. Ўринбоев А., Бўриев Ў. Тошкент Муҳаммад Солих Тавсифида. – Т.: Фан, 1983.
3. Xushvaqto'v N.H. O'rta Osiyo madrasalari ta'lim tizimi tarixidan // Ilmiy axborotnoma – Samarqand: 2016-yil 4-son
4. Baroqxon madrasasi / <https://legacy.uz/uz/barohon-madrasasi/>
5. [Baroqxon madrasasi / https://uz.wikipedia.org/wiki/Baroqxon\\_madrasasi](https://uz.wikipedia.org/wiki/Baroqxon_madrasasi)
6. [Baroqxon madrasasi / https://meros.uz/object/baroqxon-madrasasi](https://meros.uz/object/baroqxon-madrasasi)
7. [Baroqxon madrasasi / http://dkm.gov.uz/ru/baroqxon-madrasasi](http://dkm.gov.uz/ru/baroqxon-madrasasi)

<sup>7</sup> Булатова В. Бароқхон мадрасаси. – Т.: Ўзбекистон, 1972. – Б. 4.

<sup>8</sup> Булатова В. Бароқхон мадрасаси. – Т.: Ўзбекистон, 1972. – Б. 4.

<sup>9</sup> Булатова В. Бароқхон мадрасаси. – Т.: Ўзбекистон, 1972. – Б. 4.

<sup>10</sup> Baroqxon madrasasi / <https://meros.uz/object/baroqxon-madrasasi>